

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIM XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIY MARKAZI**

SHODIYEVA J.X.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA
INSHODAN FOYDALANISH**

Samarqand – 2020

Shodiyeva J. – Samarqand viloyati XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi o‘qituvchisi “Boshlang‘ich sinf o‘quvchi shaxsini shakllantirishda inshodan foydalanish”. Samarqand viloyati XTXQTMOHM, 2020-yil, 42 bet.

Muharrir:

J.Eshquvvatov – Samarqand viloyati XTXQTMOHM Ilg‘or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-axborot tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i

Taqrizchilar:

G.Raximova – SamDU Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasi f.f.n.

M.Raximqulova – Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi dotsenti

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada o‘quvchi shaxsini shakllantirishda insholarning o‘rni, maqsad va vazifalari, inshoni o‘tkazish jarayonini tashkil etish bo‘yicha ma`lumotlar o‘z aksini topgan

Uslubiy ko‘rsatma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2020 yil 24 oktyabdagи №8/3.6 sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.

KIRISH

Insho - ijodiy ish: o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, logik bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni, u mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani, «o'ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi - inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi.

Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshoini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni abzaslarga bo'lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Bugungi kunda maktablarda bolalar tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Barcha mashg'ulotlarning muvaffaqiyati ularning tilda qanday gaplashishiga bog'liq: tilni yaxshi bilish maktab kursining barcha fanlarini o'rganishda muvaffaqiyat kalitidir.

Bola o'qish ko'nikmalarini egallah bilan birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki, ona tili bilimdonlik, aql-idrokning kalitidir. Jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishiga ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Ona

tili darslarida bog'lanishli nutqqa doir yozma ishlar o'tkazish ham o'quvchilarning fikrlash jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yozma ishlardan eng samarali turlaridan biri bu inshodir.

Insho - o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkur mustaqilligi hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash yo'lida ularning o'zлari tomonidan amalga oshiriladigan, har bir o'quvchidan o'z mustaqil fikri, shaxsiy munosabatini, betakror xulosasini bayon etish talab qilinadigan o'quv faoliyatining murakkab shaklidir.

Ishning dastlabki bosqichidanoq insho birovning fikrini yoki darslikdagi ma'lumotni ko'chirish emas, balki mavzu haqida mustaqil fikr yuritish mahsuli ekanligiga urg'u beriladi.

Hozirgi vaqtida ta'limda insho ta'limi uchun ajratilgan soatlar yetarli emas. Biroq, samaradorlikni soatlar miqdori bilan bog'lab qo'yish ham muammoni yechish uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Sababi aksariyat o'qituvchilar yozma insho jarayonining murakkabligidan, ish jarayonining mehnattalabligidan, rasmiyatchilik uchungina insho yozdirishsa, yana ba'zilari shunchaki og'zaki muhokama bilan cheklanib qolishni ma'qul topishadi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning inshoni tashkil etish bo'yicha, uning hajmi, tekshirish yo'llari bilan bog'liq bilimlari yetarli emas.

Insho - bu o'quvchining o'z fikrlari, hissiyotlari, hukmlari to'g'risida boshqalarga xabar berish uchun ijodiy, mustaqil taqdimotidir va shunday bo'lishi kerak.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirishda inshoning o'rni

Insho ta'lismizidagi boshqa didaktik ishlarga qaraganda, o'quvchining o'zini o'rab turgan tevarak-atrofga, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga va o'z xulq-atvoriga munosabatini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi. O'quvchi o'ziga berilgan insho mavzulari ustida o'ylanadi, izlanadi, ishlaydi, fikrlaydi. Bu jarayon uning shaxs sifatida shakllanishida, ma'nан barkamol bo'lib etishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilar insho ustida ishlar ekan, o'z hayotiy tajribasi, maktab ta'limi, mustaqil kitob o'qishi davomida to'plagan "bilimlar ombori"dan berilgan mavzuga mos ma'lumotlarni saralaydi va mavzuga tegishli bo'limganlariga e'tibor qilmay, insho mavzusini ishonch bilan ochishga harakat qiladilar. Ular saralab olingan materiallarni mantiqiy izchilllikda joylashtirish, insho mazmuniga mos keladigan so'z va iboralarni tanlash ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar. Biroq, bu ko'nikmalar o'quvchiga tayyor holda, yaxlit tarzda berilmaydi, ular o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. O'qituvchi ularni tizimli ta'lim va davomli mashqlar natijasida o'quvchilar ongida shakllantira boradi.

Insho mustaqil ishslash ko'nikmasini hosil qilishda asosiy o'rni tutadi. Har qanday o'qituvchi, xususan, adabiyot muallimi o'quvchilarni insho mavzusini yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarga mos keladigan, ifoda aniqligi, jonliligi, tasviriyligini ta'minlaydigan so'z va iboralarni diqqat bilan tanlay bilishga yo'naltirishi, bolalarda so'z va iboralarni to'g'ri ishlatishish, u yoki bu so'zni takror qo'llamaslik ko'nikmasini shakllantirishni ko'zda tutish maqsadga muvofiqli. O'quvchi nutqida so'zlarning grammatik shakllaridan to'g'ri foydalanish, so'zlarni bo'g'indarga to'g'ri ajratish, ularni tegishli kelishik shaklida to'g'ri ifodalash, ko'makchi va bog'lovchilardan o'z o'rnida foydalanish ko'nikmasini amalgalash oshirish ham insho yozishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarda tanish so'zlardan foydalanib gap qurilishini farqlash ko'nikmasini

shakllantirib, rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. SHu bilan birga, o'quvchilarga o'rganilgan grammatik qoidalar asosida inshoni orfografik va punktuatsion qoidalarga muvofiq yozilishiga erishish ham zarur.

Inshoning ta`limdagi o'rni haqida Q.Husanboeva quydagisi fikrlarini bildiradi: "Mamlakat oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amalga oshirilgani sababli o'quvchilar, ota-onalar, hatto, ayrim o'qituvchilarda ham inshoga e'tibor susayganday bo'ldi. Aslida insho oliy maktabga kirish vositasigina emas. U adabiy ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilar tomonidan bajariladigan asosiy didaktik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki insho inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlari, qarashlarini qat'iylashtirish, ma'naviyatini sog'lomlashtirish va rivojlantirish borasidagi eng ta'sirchan pedagogik omil hisoblanadi. Shuning uchun adabiy ta'limining barcha bosqichlarida o'quvchilarga insho yozdirish shart"¹.

Prof. A.Zunnunovning fikricha esa: "Insho mактабда o'tkaziladigan yozma ishlarning eng muhim va murakkab turidir. Insho o'quvchilarda nutq, kitob ustida mustaqil ishslash, hayotni kuzatish asosida o'zlarida paydo bo'lgan taassurotlarni umumlashtirish malakasini, ijodiy qobiliyatini o'stirishda, umuman, bilimlarni puxta egallashlarida muhim rol o'ynaydi"²

Ko'rinish turibdiki, insholar o'quvchilarda mustaqil fikrlash va dunyoqarash shakllanishiga ta'sir ko'rsatish bilan birga ta'lim-tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etadi.

Insholarni asosan o'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan, u ko'p va chuqur o'ylagan narsasi haqida yozishga o'rgatish kerak yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzu haqida yozish bu zerikarli holat hisoblanadi. O'quvchiga bunday topshiriq berish unda quruqlik, yuzakilikni tarbiyalash bilan barobardir. O'quvchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta, uyg'oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda

¹ Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda insholarning o'rni. –T.: \ Til va adabiyot ta'limi, 2010. 2-son. 3-17 b.

² Zunnunov A., Nurmatova M. O'rta maktabda insho. –T.: TVPXMOK, 1992. –44 b

atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonga kuchli qiziqish uyg'otiladi. O'quvchini o'zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko'rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan ma'qul. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, insho mavzusini tanlashni o'quvchining o'z ixtiyoriga berish o'quvchilar uchun qiziqarli va ularni ijodiy fikrlashga undaydigan holat hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga o'rtoqlarining insholarini o'qishga berish; o'quvchilarning insholari tahlil qilinayotganda undagi kamchiliklar yuzasidan qattiq tanbeh bermaslik; inshoga baho berishda hajmning qanchaligini hisobga olmaslik kerakligini o'rgatib borish kerak. Insho o'quvchilarni aks ettirishga o'rgatadi. Matn yozish uchun ular ko'p narsalarni tahlil qilishi, kitoblardan va internetdan ma'lumot qidirishi, dalillar topishga, ularni tekshirishga va taqqoslashga, o'zi yoki birovning hayotiy tajribasini sarhisob qilishni o'rgatadi va izlanishini talab qiladi.³ Bu o'quvchilarning mustaqil harakatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'quvchining eng yuqori mustaqilligini, faolligini, g'ayratini, o'ziga xos, shaxsiy narsalarni matnga kiritishni talab qiladi. Materialni tayyorlash, uni tizimlashtirish, hikoya yoki kompozitsiya tarkibi va rejasi ustida fikr yuritish, mantiqiy aloqalarni o'rnatish, so'zlarni, frazeologik birliklarni, iboralarni tanlash, ular orasidagi jumlalar va bog'lanishlarni qurish, imloni tekshirish - bu barcha murakkab harakatlar majmuasi talabadan nafaqat uning barcha aqliy zo'riqishlarini talab qiladi. kuch, shuningdek, ularning intellektual faoliyatini boshqarish hamdir.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot yoki oddiy hikoyadan boshlanib, sinflar yuqorilab borgani sari o'quvchini o'z fikrini ifodalashga o'rgatadigan, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan, aqlini peshlab dunyoqarashini kengaytiradigan, tafakkurini tiniqlashtiradigan, nazarini ziyraklashtiradigan ta'lim-tarbiyaiy ahamiyatga ega bo'lgan ish turiga aylanib boradi.

³ Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti, 2013.-432b.

O'quvchilarning insholarini baholashga o'qituvchi o'ta sinchkovlik va e'tibor bilan yondoshmog'i kerak bo'ladi. Masalan, 4-sinf o'quvchisi "Bulbul" ertagi asosida "Ertak haqida taassurotlarim" mavzusida insho yozgan bo'lsa, unda o'quvchi, birinchi navbatda, o'z fikr-mulohazasini oshkor ayta olgan bo'lishi kerak (Garchi u xato bo'lsa ham. Chunki umuman fikrning yo'qligidan ko'ra, noto'g'ri bo'lsa ham bori muhim. Fiksizlikdan ko'ra noto'g'ri fikrni to'g'ri yo'nalishga solish osonroq.). Insho hajmi unchalik katta bo'lmasligi mumkin, biroq unda aytilgan fikrning teranligi muhim ahamiyat kasb etadi. Munosabat bildirayotgan o'quvchi ertakdagi tabiiylik va sun'iylikning farqini nafaqat ertakdagidek, balki bugungi hayot bilan bog'lab anglashi va ifodalashi adabiy ta'lim uchun katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda ham xuddi shunday sun'iylik va soxtaliklarning ta'siriga tushib qolmaslik, nima yaxshi-yu, nima yomonligining farqiga etish, hayot yo'lida adashmay olg'a borish muhimligini ilg'ashi o'quvchining ertak g'oyasini tushunganlik darajasini anglatadi.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilariga insho yozishni o'rgatishda eng samarali vosita bolalarga tanish voqelik aks etgan rasmlar sanaladi. Bunday rasmlar hamisha bolalar diqqatini tortadi, ularga yoqadi. Bitta rasm yoki ikki-uch qismdan iborat rasm asosida hikoya tuzishda bolalar rasmni mustaqil tomosha qilishib, uning mazmunini o'qituvchining savollarisiz aytib berishlari ham mumkin. Bir o'quvchining hikoyasini eshitgach, o'qituvchi savol beradi: "Kim qo'shimcha qilmoqchi?" Hikoyadagi kamchiliklar aniqlangach, savollar bilan uni to'ldirishga kirishiladi. O'qituvchi yordamida mantiqiy izchillik va fikrlar ketma-ketligi hamda bog'liqligiga erishiladi. Ta'limning alifbegacha va alifbe davrida shakllangan og'zaki hikoyalar o'qish boshlariga kelib, asta-sekinlik bilan yozma inshoga aylana boradi. Dastlabki paytlarda og'zaki va yozma insholar orasida katta farqlar ko'zga tashlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga og'zaki hikoya tuzishni mashq qildirar ekan, ularning nutqini o'stirishda o'z fikrlarini atroflicha isbotlay olishlariga erishishni maqsad qilib olishi lozim.

Og'zaki insho har doim ham yozuv bilan tugayvermaydi, biroq yozma insho oldidan og'zaki tayyorgarlik ko'rish lozim bo'ladi.

Insho yozishda o'quvchilarning o'zlaridagi materiallarni izchillik bilan, qat'iy ketma-ketlikda joylashtirish, ya'ni inshoda dastlab nima haqida yozish, keyin uni qanday tugatish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ularni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shunda o'quvchining inshosidagi fikrlar ketma-ketligi uni o'qigan har bir kishiga aniq va ravshan bo'lishiga erishiladi.

II sinfda o'quv yilining boshida insho yozishga o'rgatish metodikasi birinchi sinfdagiday bo'ladi. Ya'ni savollarga javob berish orqali. O'quv yilining keyingi davrlarida u to'xtovsiz ravishda o'zgarib boradi: o'quvchilar ko'proq mustaqil ishlashga o'rgatib boriladi.

O'qituvchi shu taxlit ikki-uch marta insho yozdirganidan keyin, o'quvchilarni faqat savolni qisman takrorlaydigan javob gaplarni emas, balki o'quvchi tomonidan mustaqil tanlanadigan javoblar talab qiladigan gaplarni tuzishga asoslangan mavzularga o'tishi mumkin. Shu tariqa o'quvchilar nafaqat insho yozishni, balki taassurot va sharh yozishni ham o'rganadilar.

Shunday qilib, yaxshi insho bo'lish uchun eng muhim o'z ovoziga ega bo'lish kerak.

Insholarni tashkil etishda o'qituvchi kompetentliligi va pedagogik hamkorlikning o'rni

Insho – ta'lim tizimidagi eng muhim ish turlaridan biri. U nafaqat o'quvchilar bilimini nazorat qiladi, balki o'quv materialining majburiy kengaytirilishini, uning yanada teran anglanishi va unga tanqidiy yondashuvni yuzaga keltiradi. Inshoda o'quvchi tabiatidagi individual, o'zigagina xos bo'lgan jihatlar yorqin aks etadi. Chunki inshoda mavzuga xususiy munosabat, shaxsiy fikr va his-tuyg'ular ifodalanishi taqozo etiladi. Ta'limning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, insholarni to'g'ri, bugungi adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etish, bevosita o'qituvchining kompetentliligi bilan bog'liqdir.

Badiiy asarni o'rganish bilan bog'liq yozma ishlar mavzularining rang-barangligiga erishish ham bevosita o'qituvchining kompetentliligin taqozo etadi. Ular o'quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq tanlanishi, ayni zamonda, tajribadan o'tgan ezgu ma'naviy sifatlar shakllantiradigan mavzular ko'zda tutilishi maqsadga muvofiqli.

O'quvchilarning insholarini tashkil etish borasida o'qituvchi kompetentliliği xususidagi qarashlarni bevosita bir asar misolida amaliy tarzda ko'rib chiqish mumkin. Ma'lumki, bolalar hali boshlang'ich sinfdaligidayoq asarlardagi etakchi fikrni ilg'ashga o'rgatilib, matn mavzusini aniqlashga odatlanadilar. Ta'limning o'rta halqasida bu malakalar ijodiy insholar vositasida mustahkamlanib boradi.

Adabiy ta'limning o'rta bosqichida o'quvchilar darsda jahonning mashhur ertakchisi Hans Kristian Anderssenning "Bulbul" ertagi bilan tanishadilar. Ushbu ertak asosida insho yozishda kompetentli o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning "asardagi etakchi fikrlar" tushunchasini mustahkamlash maqsadida quyidagilarni aniqlashni taklif qiladi:

- ertakdagi asosiy fikrlar: har qanday to'siqni engib o'tish, mo"jizalar yaratishga qodir bo'lgan insoniy fazilatlar – tabiiylik, fidoyilik, oqibatlilikni aniqlash;
- ertakda qoralangan insoniy sifatlar: soxtalik, tilyog'lamalik, sun'iylikni ajratish.

Maktab adabiy ta'limi dasturidan yaxshi xabardor bo'lgan o'qituvchi o'quvchilar ilgari qanday asarlarda shunga o'xshash fikrlarga duch kelishgani haqida o'ylab ko'rish, boshlang'ich sinflarda o'rgangan ertaklarini xotirlashni taklif qiladi. O'quvchilar ushbu qarashlar etakchilik qilgan, o'zlari avval eshitgan, mustaqil o'qigan yoki o'rgangan ertak ("Zumrad va Qimmat", "Uch og'a-ini botirlar" va hk.)larini esga oladilar. Binobarin, o'qituvchi asardagi etakchi fikr badiiy asar quriladigan asosiy o'q ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. SHunday qilib, o'quvchilar "Mening sevimli ertagim"

mavzusidagi o‘z insholarini yozish uchun “Bulbul” ertagidagi etakchi fikrlarga tayanishadi. Biroq, shu bilan birga, boshqa jihatni ham unutmaslik zarur: insho, albatta, Andersennenning ertagi motivlari asosida yozilishi kerak. Bu kompetentli o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorlikda insho yozish jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatidir.

Darsning borishida o‘quvchilar Andersen ertagidan alohida unsurlarni ajratib olishlari zarurligi oydinlashtirib olinadi. Chunki ertak haqida insho yozilar ekan, unsurlar ham ertakona bo‘lishi zarur. Ishning navbatdagi bosqichi – ertakning janr mazmuniga tabiiy ravishda ko‘chiriladigan unsurlarni izlash sanaladi. O‘quvchilar o‘z insholarida “Bulbul” ertagidagi quyidagi qahramonlar, narsabuyumlar va hodisalardan foydalanishlari mumkin: bulbul, Chin imperatori, Yapon imperatori, oshpaz qiz, sun’iy bulbul, irkit va razil sharpalar, muloyim va chiroyli sharpalar, bulbul sayrog‘i, oltin qilich, qimmatbaho bayroq, hukmdorlik toji, Azroil.

Ertak ustida ishning o‘quvchilar uchun bir muncha murakkab bo‘lgan uchinchi bosqichi boshlanadi. Unda barcha qahramonlarni o‘zaro bir-biri bilan bog‘lash va o‘z inshosini tuzilishiga ko‘ra badiiy bezash amalga oshiriladi. Bu vaziyatda o‘qituvchi savollar yordamida syujet chizig‘ini rejalashtirish orqali ishni tashkillashtiradi. Bu ishning boshlanishidan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga ularning inshosidagi qahramonlar Andersen ertagidagi harakatlarni bajarishlari mumkinligini, biroq bunda muallifni aynan takrorlashdan qochish zarurligini alohida ta’kidlaydi. O‘quvchilarga o‘z inshosi syujetini qurib olishga yordam beradigan savollar to‘plami beriladi. Savollar to‘plami turli variantlarda bo‘lishi mumkin, ulardan quyidagi ikkitasi namuna sifatida taqdim etiladi:

I savollar to‘plami

Sizning ertagingizda:

1. Imperator bulbul haqida qanday xabar topadi?
2. Sun’iy bulbulga qanday unvon beriladi?
3. Bulbulning qahramonligi nima bilan izohlanadi?


II savollar to‘plami

Sizning ertagingizda:

1. Sun‘iy bulbulni kim sovg‘a qiladi?
2. Chinakam bulbul nega imperator mukofotidan bosh tortadi?
3. Saroy amaldorlari qanday salbiy xatti-harakatlar qiladi?

Quyida mazkur savollar to‘plami ko‘magida Andersennenning “Bulbul” ertagi asosida yaratilajak insho-ertakning syujet chizig‘i tasvirini ko‘rish mumkin.

Andersen qalamiga mansub “Bulbul” ertagining syujet chizig‘i



O‘qituvchi ertak variantlaridan birini namuna sifatida keltiradi va o‘quvchilardan mustaqil ravishda uning ikkinchi variantini yozishlarini so‘raydi.

Bunday insholarni tashkil etishning asosiy vazifasi – o‘quvchilarni muayyan badiiy asardagi yetakchi g‘oyalarni ilg‘ash va ulardan o‘z ijodiy insholarida foydalanishga o‘rgatishdan iborat.

O‘qituvchi shuni unutmaslik joizki, har qanday insho muayyan janrda yoziladi. Hozirgi kungacha maktab inshosi adabiy-tanqidiy maqola muqobili yoki xarakterga berilgan tavsif ko‘rinishida edi.

Bugun esa o'quvchi nafaqat adabiy-tanqidiy maqola janrida insho yozish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki esse, kundalik, reklama kabi turli-tuman janrlarda yozish ko'nikmasini ham egallashi zarur. Bu kabi shakllardagi insholar ustida ishslash maktab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlari va tafakkur mustaqilligini rivojlantiradi, ayni zamonda, dunyoqarashini kengaytiradi, yozma savodxonligini orttiradi hamda o'quvchi shaxsida badiiy asar tilini his qilish ko'nikmasini tarbiyalaydi.

Badiiy asarlar yoki hayotiy hodisalar asosida esse yozish, u yoki bu kitobning reklamasini tayyorlash, kundalik yuritish ishlari ham insholarning bir janri bo'lib, ular o'quvchilarni asar muallifi yoki uning qahramoniga, ma'lum hayotiy shaxs va hodisaga o'z munosabatini ifodalashga yo'naltiradi. Ko'p hollarda o'quvchilarning tahlil qilinayotgan asarga munosabati darslik muallifi yoki o'qituvchisining aytganlariga o'xhash, monand yoki aynan takrori bo'ladi. Insho yozish ko'nikmasini shakllantirishning dastlabki bosqichida bu tabiiy hol, albatta. Ammo bu asta-sekinlik bilan o'ziga xoslik kasb etib, boshqacha so'z va iboralardan foydalanishda, jumlalar tuzishda, insho matnini yaratishda mustaqillik kasb eta borishini ta'minlash o'qituvchining vazifasidir.

Tarbiyanuvchilarni insho yozishga o'rgatish nazariyasi va metodikasi hamisha til, adabiyot ta'limi muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Chunki insho yozish nazariyasi va uning metodikasi ham ona tili, ham adabiyot darslarida og'zaki va yozma nutq rivojini ta'minlash, shu bilan birga og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish hamda tafakkur mustaqilligiga erishish, dunyoqarashni shakllantirishning ham asosidir.

O'qitish holatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, maktabning o'rta bo'g'inida, aksariyat hollarda, o'qituvchilar o'quvchilarning insholarini tashkil etishning samarali yo'llari borasida maxsus bilimga ega emaslar, shu bois ular badiiy asarni o'rganishdan keyin olinadigan insholar bilan kifoyalanishadi. Bu holatni maktab adabiyot

dasturlarida insho yozdirish bo'yicha mavzular banki mavjud emasligida ham ko'rish mumkin. O'quvchilarga beriladigan mavzular: alohida muammoni tahlil qilish, obrazlarni taqqoslash, asarning badiiy vositalarini tahlil qilish kabilar bilan cheklanadi.

Xulosa qilib aytganda, darsda har xil yo'nalishdagi insholarni tashkil etishda va ularni o'quvchilarning ham aqliy, ham ijodiy imkoniyatlaridan ularning o'zlari uchun maksimal darajada foydalanib hamkorlikda ishlay bilish o'qituvchi kompetentliligi darajasini namoyon etadi.

Insholarni tashkil etishga qo'yiladigan psixologik, pedagogik va metodik talablar

Psixologik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ijod jarayonida inson aqlining faoliyati uning o'zi tomonidan bevosita kuzatilmaydi. Bu faoliyatning nechog'lik mustaqilligini kuzatish hamda uni rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining, maktab va o'qituvchining vazifasi. Buning uchun o'qituvchidan ta'lim jarayonining har bosqichida har bir o'quvchining shaxsi, intellektual imkoniyatlari, intilishlari va qiziqishlarini bilish talab qilinadi. Bu jarayonni bevosita adabiy ta'lim, xususan, insho yozish bilan bog'lab shuni aytish mumkinki, o'quvchi ta'limning har bosqichida o'rganilayotgan badiiy asar qahramonlarini o'ziga xos tarzda qabul qiladi. Insho yozish asnosida ularning shaxsiga, xatti-harakatlariga munosabat bildirishda ham har xillik bo'ladi. Bola ruhiyatiga xos bunday individual xususiyatlarni bilish o'qituvchi ish faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi badiiy asar matni ustida ishslash, asarlar asosida insho yozishni tashkil etish metodini aniqlashda, asosan, shu jihatlarga tayanishi kerak bo'ladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar (7 – 10 yosh) adabiy qahramon shaxsi, xatti-harakatlari bilan tanishish asnosida undagi umumiyl axloqiy sifatlarni ilg'ab olishadi. Ularning xulosalari ko'pincha bir taraflama bo'lib, asardagi voqeа-hodisalar asosida keskinlik bilan

chiqariladi. Bola xayolan asar qahramonlari bilan birlashtirishda sarguzashtlarda ishtirok etar ekan, qahramonning shaxsiy sifatlari bilan emas, matndagi lavhalar, voqealar rivoji bilan ko'proq qiziqadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini asar muallifi ifodalayotgan jarayonga kirishga, yozilganlarni tasavvur qilishga, kulgili epizodlarda maza qilib kulishga, fojiali holatlarda qayg'urishga tayyor. Ammo ular muallifga ishonmaslikka, unga munosabat bildirishga, matnning afzallik yoki nuqsonlarini muhokama qilishga qodir emaslar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan taqlidchilik bu davrning o'ziga mos xususiyati sanaladi. Bu holat o'zlashtirilishi lozim bo'lgan sifatlarning tashqi jihatini ko'chirishda namoyon bo'ladi. Ularda ba'zan aytilganni o'zidek takrorlab berish haddan oshib ketadi. Bilganlarini o'z so'zi bilan gapirib berish so'ralganda esa ko'pchiligi buning uddasidan chiqisholmaydi. Bu yoshda xotira kuchliligi bilan birga nutqning rivojlanmaganligi ham ko'zga tashlanadi. Ularning ko'pchiligiga bir marta eshitgan narsasini boshqa so'zlar bilan ifodalab berish qiyinlik qiladi. Bu bosqich adabiy ta'limida o'zlashtirishga, bilganlarini shuuriga singdirishga moyillikdan unumli foydalanish kerak bo'ladi. O'zlashtirganlarini qog'ozga tushirish jarayoni esa yanada ko'proq qiyinchilik bilan amalga oshadi. SHuning uchun boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida ko'rilgan qo'g'irchoq filmlar, bolalarga xos badiiy filmlar haqida og'zaki insholar tashkil etish, yuqori bosqichida esa avval suratlar asosida, asta-sekinlik bilan o'qish darslarida o'rganilgan badiiy matnlar asnosida insholar tashkil etish yaxshi samara berishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma insholarini tashkil etishda o'qituvchilar ularga xos bo'lgan quyidagi psixologik-pedagogik xususiyatlarni bilishlari maqsadga muvofiqdir:

- ta'limning har bosqichida o'quvchilarning yoshiga xos umumiyligi jihatlarni;
- bu yoshdagi o'quvchilarga xos bo'lgan taqlidchilikni;
- ularga xos bo'lgan aytilganni o'zidek takrorlab berish ba'zida haddan oshib ketishini;

- bilganlarini o‘z so‘zlari bilan gapirib berish so‘ralganda, ko‘pchiligi buning uddasidan chiqolmasligini;
- bu yoshda xotira kuchliligi bilan birga nutqning etarli darajada rivojlanmaganligini;
- ko‘pchiligiga bir marta eshitgan narsasini boshqa so‘zlar bilan ifodalab berish qiyinlik qilishini;
- boshlang‘ich sinf bolalarining o‘zlashtirishga, bilganlarini shuuriga singdirishga moyilligini;
- ta’lim jarayonining har bosqichida har bir o‘quvchining shaxsi, intellektual imkoniyatlari, qobiliyati va qiziqishlari ayricha ekanligini;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilriga xos bo‘lgan adabiy qahramonning shaxsi, xatti-harakatlari bilan tanishish asnosida undagi umumiy axloqiy sifatlarni ilg‘ab olish qiynligini;
- boshlang‘ich sinf bolasi xayolan asar qahramonlari bilan birgalikda sarguzashtlarda ishtirok etishga, matndagi lavhalar, voqealar rivojiga ko‘proq qiziqishini;
- asar muallifi ifodalayotgan jarayonga kirishga, yozilganlarni tasavvur qilishga, hazillardan qotib-qotib kulishga, qahramonlar uchun qayg‘urishga moyilligini;
- ular muallifga ishonmaslikka, unga munosabat bildirishga, matnning afzallik yoki nuqsonlarini muhokama qilishga hali qodir emasliklarini;
- darslarda o‘zlashtirganlarini qog‘ozga tushirish jarayoni ko‘pchilik bolalarga qiyinchilik tug‘dirishini.

Boshlang‘ich sinflarda har xil mavzularda insho yozish ishlarini tashkil etishda bularga alohida e’tibor qaratish mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlaydi.

Bola yosh bosqichlariga ko‘ra turlicha qiziqishga ega bo‘ladi, o‘ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Turli yoshda turlicha faoliyat ko‘rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo‘ladi. Beshinchi, oltinchi sinf o‘quvchilari – kichik o‘smir yoshidagi bolalarning o‘qituvchilar va bir-birlari bilan o‘zaro munosabati o‘zgara boshlaydi. Bu davrda faollikning xususiy shakllari kuzatiladi, ularning intellekti o‘zini

namoyish eta boshlaydi. 11–12 yoshli bolalarning ko‘pchiligi o‘qishga beparvolik bilan qaraydilar: o‘zlarini oshiqcha qiynamaydilar, uy vazifalarini berilgan topshiriq darajasida bajaradilar, ko‘pincha, o‘zlarini ovutadigan boshqa narsalarni o‘ylab topishga moyil bo‘ladilar.

O‘quvchilar yuqori maktab yoshiga etganda ularda insonni baholashdagi keskinlik va biryoqlamalilik kamayadi. Bu yoshdagi bolani shaxsning axloqiy sifatlari, uning ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turtki bo‘lgan omillar ko‘proq qiziqtira boradi. Ammo kichik o‘smir ham adabiy qahramonni uning shaxsiga xos bo‘lgan barcha jihatlarni inobatga olgan holda, yaxlit baholashga qodir emas. U ko‘pincha qahramonning u yoki bu fazilatiga urg‘u bergen holda shaxsini baholaydi. O‘rta maktab yoshidagi bolalar fikrlashida anchagina sabrsizlik seziladi. Bu davrda bolalar darsda bajariladigan ishlarning tezligiga ehtiyoj sezadilar, oradagi bo‘shliqlarni qiynalib o‘tkazadilar. Qiyin, murakkab vaziyatlarning uzoqroq saqlanishini xush ko‘rmaydilar. SHunisi xarakterlik, bu yoshdagi bolalar berilgan topshiriqlarni yoki bir o‘tirishda qoyillatib hal qiladilar yoki umuman bajarmaydilar. Bu yoshdagi o‘quvchilarga insho yozish vazifasini topshirishda o‘qituvchi yoshga xos bo‘lgan bu jihatlarga alohida e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustaqil muhokama yoki tanqidiy tahlil qilish o‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarning faoliyatida ancha chegaralangan bo‘ladi. Bu bosqichdagi o‘quvchilar bilimlarni tayyor holida, o‘ta maydalangan darajada qabul qilishni uncha xushlamaydilar. Ayrimlar vazifani taxtadan ko‘chirmasdan o‘zlari echishga moyil bo‘ladilar, agar topshiriqni o‘qituvchining ko‘magisiz hal qila olishga ko‘zlari etsa, ustozning qo‘sishimcha tushuntirishlaridan qochadilar. Ba’zan ularning fikr ifodalashida mustaqil mulohazani ham ilg‘ash mumkin.

O‘z shaxsiy fikrini aytish istagi, o‘rganganlari orasidan o‘zinikini ajratib ifodalashga harakat boshlang‘ich sinflarda, hatto 5-sinf bolasida ham kam uchraydi. O‘quvchilarning bunday xulqi shaxs taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tarilishi bilan izohlanadi. Ular

oltinchi sinfga o'tganlarida fikr bayon etish istagining belgilari namoyon bo'la boshlaydi. Bolaning bu davrdagi jismoniy va aqliy rivojlanishi uning tafakkur faolligi xarakterini ham o'zgartiradi: uni mustaqil aqliy zo'riqishga undaydigan topshiriqlar ko'proq o'ziga torta boshlaydi. Bu hol, avvalo, har bir predmet bo'yicha alohida o'qituvchi bo'lishi, o'qituvchiga munosabatning tubdan o'zgarishi va o'quvchi mustaqilligining ortishi bilan izohlanadi.

Beshinchi, oltinchi sinf yoshidagi bolalarga xos bo'lgan faoliyatga moyillik, ishtiyoqning zo'rliqi, mustaqillikka intilish shaxslik shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular o'z holicha bolaning umumiylara taraqqiyotini ta'minlaydi. Bu yoshda shakllangan ma'naviy fazilatlar kelajakda ijodiy faollik garovi bo'lishi va maxsus qobiliyatlarning yuzaga kelishi shartlaridan biri bo'lishi mumkin. Bu bosqichda boy berilgan imkoniyatlar esa bolaning hayotida hech qachon qaytib kelmasligini har bir o'qituvchi yaxshi anglashi kerak.

Maktab ta'limining o'rta bosqichi yoshidagi bolalar intizomli o'quvchi bo'lib, talab etilgan narsalarni bajarishdan ko'ra o'z intellektual kuchini o'zлari uchun qiziqarli bo'lgan narsalarga sarflashni xush ko'radilar. Bu davrning diqqatga sazovor tomoni shundaki, bolalarda ayrim mustaqil ishlarni va amaliy topshiriqlarni bajarishga moyillik kuchli bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarini avvalgi bosqichlarda uchramagan topshiriqlar ruhlantiradi. Ular bunday topshiriqlarni bajarishga jon-dili bilan kirishadilar.

O'smirlik yoshidagi o'quvchilarda (13–15 yosh) o'rta maktab yoshida shakllana boshlagan inson tuyg'ularini, uning dunyoqarashini tushunishga bo'lgan qiziqish ortib boradi. Psixologik taraqqiyotning bu bosqichiga o'tgan o'quvchilarga o'qituvchining shaxsi katta ahamiyat kasb etadi. To'qqizinchiligi sinf o'quvchilarini kichik o'smirlar bilan taqqoslab ularda nazariy fikrlarning sezilarli rivojlanganligini payqash qiyin emas. Bu yoshdagi o'quvchilarda har xil muammolarni o'zlaricha mustaqil hal qilishga urinish yanada kuchayadi. O'zaro tortishuvlar, darslardagi munozaralar, har xil muhokamalarda qatnashish bolaning bu yoshdagi tabiiy ichki ehtiyojlarini qondirishga

xizmat qiladi. Sinflar yuqorilab borgan sari bolalar tanqidiy mulohaza yurita boshlaydilar, tortishadilar, muammo mazmuni yuzasidan salmoqli savollar bera boshlaydilar. O'qituvchilar bolalar shu yoshga etgunlaricha boshlang'ich maktabda, ta'limning o'rta bosqichida ularni bu davrga tayyorlashlari, har bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini aniq belgilab olishlari kerak bo'ladi.

O'qituvchidan boshlang'ich sinfda o'tiladigan har bir darsda bolalarning ruhiy, jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularni mustaqil mulohaza yuritib, munosabat bildirishga undaydigan insholarni yozdirishga yo'naltirish talab qilinadi. 5–6-sinflarda insholarni tashkil etishda o'quvchining shu bosqichdagi intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ish yuritish lozim bo'ladi. Toki, bola psixologik jihatdan ma'lum yoshga etganda uning birorta imkoniyati bekorga ketmasin, ishtiyoqi so'nib qolmasin. Bu borada o'qituvchining dars jarayonini, xususan, insholarni qanday tashkil qilishi, o'quv va insho materialini qay yo'sinda taqdim etishi bilan birga bilim va ma'naviy sifatlar darajasini aniqlash yo'llarining nechog'li turfaligi ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qanday holatda ham inson shaxsi va uning faoliyatdagi mustaqilligi, ma'naviy kamoloti birinchi o'rinda turishi maqsadga muvofiqdir.

Odatda, darsdan tashqari biror qiziqarli hayotiy hodisa yoki kino muhokama qilinganda o'quvchilar ancha dadillashib ketadilar. SHunday vaziyatlarda ular o'z aqliy va yosh imkoniyatlaridan ko'ra ko'proq narsalarni bilishi ma'lum bo'lib qoladi. Darsliklarda dars jarayonida bolalarni xuddi shunday qiziqtiradigan, ularni o'ylantiradigan, tabiatiga, yosh xususiyatiga mos mavzulardagi insholarning ko'proq berilishi, o'rganilgan asarlar yoki insho mavzusi sifatida taklif etilgan mavzular yuzasidan taqdim qilingan savol-topshiriqlarning turfaligi darslardagi shunday vaziyatlarning asosi bo'ladi. O'quvchilarning ruhiy muvozanatdan chiqishi esa ularni ma'naviy kamolot sari etaklash garovidir.

Ta’limning o’rta bosqichi yoshidagi o’quvchilarning taraqqiyotiga xos bo’lgan quyidagi xususiyatlar adabiyot darslarida insholarni tashkil etishda inobatga olinishi maqsadga muvofiqdir:

- o’smir yoshidagi bolani mustaqil aqliy zo’riqishga undaydigan topshiriqlar ko’proq o’ziga tortishi;
- beshinchi, oltinchi sinf yoshidagi bolalarning faoliyatga moyilligi, ishtiyoqining zo’rligi va mustaqillikka intilishi;
- mакtab ta’limining o’rta bosqichi yoshidagi bolalar intizomli o’quvchi bo’lib, talab etilgan narsalarni bajarishdan ko’ra o’z intellektual kuchini o’zlari uchun qiziqarli bo’lgan narsalarga sarflashni xush ko’rishi;
- ayrim mustaqil ishlar va amaliy topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarishga moyillik kuchli bo’lishi;
- bu bosqichga o’tgan o’quvchilarni avvalgi faoliyatida uchramagan topshiriqlar ruhlantirishi;
- o’spirinlik yoshidagi o’quvchilarda inson tuyg’ularini, uning dunyoqarashini tushunishga bo’lgan qiziqish ortib borishi;
- ularda nazariy fikrlashning rivojlana boshlashi;
- har xil muammolarni o’zlaricha mustaqil hal qilishga ehtiyoj yanada kuchayishi;
- o’zaro tortishuvlar, darslardagi munozaralar, har xil muhokamalarda qatnashishga moyillik kuchayishi;
- tanqidiy mulohazaga moyillikni, tortishuvlar, muammo mazmuni yuzasidan salmoqli savollar berish ularni qiziqtirishi va hk.

Insho ijodiy ish bo’lganligi sababli o’quvchidan yuqori darajadagi mustaqillik va faollikni, matnda faqat o’z shaxsiy fikrini ifodalashni talab qiladi. Materialni tayyorlash, uni tizimlashtirish, inshoning rejasini tuzish, fikrlar orasida mantiqiy bog’lanish o’rnatish, munosib so’zlar, iboralar va so’z birikmalarini tanlash, gaplarning qurilishi hamda ular orasidagi bog’lanishni aniqlash, imloviy jihatdan tekshirish – bu murakkab harakatlar majmui o’quvchidan nafaqat barcha aqliy salohiyatini ishga solish uchun kuchli bosimni, balki o’z intellektual faoliyatini boshqarish malakasini ham talab qiladi.

Inshoga rejorashtirilgan vaqtini samarali taqsimlash, avvalo, ishning sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, qolaversa, muallifni ortiqcha hayajon va shoshma-shosharliklardan, xatolarga yo'l qo'yishdan asraydi. O'quv yili oxirida yoki yakuniy bitiruv sinovlarida olinadigan insholarni yozish uchun vaqt me'yorini quyidagicha rejorashtirish maqsadga muvofiq sanaladi: 1) insho mavzusini tanlash va u haqda o'ylash uchun 25 – 30 daqiqa; 2) insho rejasini tuzish uchun 30 – 40 daqiqa; 3) qoralama shaklini yaratish uchun 1 soat 30 daqiqa (ya'ni inshoning rejasi va uning qoralama variantini tayyorlash uchun vaqt ikki soatdan oshmasligi kerak); 4) inshoni oqqa ko'chirishga esa bir soat vaqt ajratiladi; 5) qolgan vaqt esa inshoni tekshirib ko'rishga sarflanadi. Bu ish albatta bajarilishi shart. Chunki u yaxshi bahoga erishishning garovidir.

Insho mavzusini to'g'ri tanlab olishga har bir o'quvchi taklif etilganlarning qaysi birini adabiyot darslarida yaxshiroq o'zlashtirgani va qaysi mavzuning tahlilini mukammal amalgaga oshira olishi mumkinligidan kelib chiqib yondashadi. Mavzu to'g'ri tanlab olingandan keyingina insho ustida ish boshlanadi. Avval qoramalama tanqidchilarning asar haqidagi fikrlari, zarur sanalar, har xil ko'chirmalar yozib olinadi. Vaqtini besamar sarflamaslik uchun bunday qaydlar qisqartirilgan shaklda, jadvallar, to'plangan materiallar ma'lum izchillikda yozib boriladi. Zaruriy ma'lumotlar eslanib, to'planib bo'lingach, ularning qay biri asosiy, qay biri ikkinchi darajali ekanligiga qarab ma'lum mantiqiy izchillikka solinadi.

Ish tayyor bo'lgach muallif tomonidan xatolari tekshirib chiqiladi. Har bir so'zning imlosiga alohida e'tibor qaratiladi. Keyin ishora xatolariga diqqat qaratiladi. Imlo xatolarini tekshirishda ishni inshoning oxiridan boshlagan ma'qul. Ya'ni matnning oxiridan boshlab har bir so'z undan xato qidirish maqsadida o'qiladi. SHunda o'quvchi-muallifning diqqati uning mazmuniga chalg'imaydi, faqat xatolarga e'tibor qilinadi.

Insho mavzusini anglash va uni ochib berish muallifning mustaqil tafakkuri qobiliyati hamda tanlangan mavzuni qanchalik

o'zlashtirganligi bilan bog'liq. Insho rejasi bu borada muvaffaqiyat garovidir. Inshoda fikrlarni ma'lum mantiqiy izchillikda bayon etish uchun reja muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab amaliyotidan ma'lumki, juda ko'p o'quvchilar inshoning rejasini tuzishga qiynaladilar. Buning asosiy sabablarini: o'quvchilar boshlang'ich ta'limga asarlar yuzasidan reja tuzish ko'nikmalarini yaxshi egallamaganliklarida; adabiyot darslarida asarlarning tahlili mukammal bo'limganida; o'quvchilar asardagi muhimni nomuhimdan farqlashga yo'naltirilmaganliklarida; qahramon shaxsiga xos sifatlarning ajratilmaganida; ularga o'quvchilarning munosabatlari aniqlanmagani va hk.da ko'rish mumkin. SHu bois o'quvchi insho rejasini tuzishga, nimalarni birinchi planga olib chiqishga, inshoda nimalarni aks ettirish lozimligini belgilashga qiynaladi. Reja inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun asos bo'ladi. Rejaga tayanib asosiy fikrlar shakllantiriladi, inshoning mazmuni va uni yoritish izchilligi aniqlanadi. Rejaga asoslanilgan holda ishning kirish qismi, asosiy qismining bandlari va xatboshilar belgilanadi. Masalan, "Men yoqtirgan kasb" yoki Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonidagi "Jaholat to'g'risidagi rivoyat" she'ri asosida rivoya insho yozish uchun quyidagicha reja tuzish maqsadga muvofiq sanaladi:

Men yoqtirgan kasb

Reja:

1. Turli kasblar haqida o'ylarim.
2. Hayotda har kimning o'z sevgan kasbi bor.
3. Men tanlagan kasb.
4. Maqsadimga erishish uchun qilishim kerak bo'lgan ishlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga insho yozdirish yo'llari

Umumiyo'rta ta'limga maktablari boshlang'ich sinflarida insholar erkin mavzular (asosiy materialning olinajak manbasi, janri, hajmi, bajarish joyi va usuliga, qo'shimcha topshiriqlari mavjudligiga ko'ra)da, maqsadiga ko'ra ta'limiylar hamda nazorat shaklida tashkil

etiladi. Dastlabki davrda alifbegacha va alifbe davrida (taxminan, 12–13 hafta), hali bolalar o'qishni ham, yozishni ham to'la bilmaydigan davrida, o'quvchilarga o'z kuzatishlari, hayotidagi har xil voqealar (mashg'ulotlar, o'yinlar, qiziqishlar, mavsumiy mehnat) bo'yicha og'zaki insho, rasmlar asosida hikoya tuzish bo'yicha amaliy mashqlarni bajartirish samarali natijalar beradi. O'quvchilar tomonidan tuzilgan bu hikoyalar ularning birinchi insholari sanaladi.

O'quv yilining ilk kunlaridan o'qituvchilar bolalarga tabiatni kuzatish va shu asosda tabiat taqvimini yuritishni o'rgatadilar. Bu kuzatishlarning o'zi ham quyidagi savollarga javob beruvchi hikoya (og'zaki insho) uchun mavzu bo'lishi mumkin: "Bugun ob-havo qanday? Osmon qanday ko'rinishda? Havo bulut bo'lganda osmon qanday ko'rinishda bo'ladi? Nega shunday bo'lishini bilasizmi? Quyoshning qizdirishi nimalarga foydali? Nimasi bilan foydali deb o'ylaysiz? Shamol foydali hodisami yoki zararlimi? Kuchli shamol yaxshimi, yomonmi? Shamol nimasi bilan yaxshi-yu, nimasi bilan yomon, sizningcha? Yomg'ir yog'yaptimi? Kun issiqmi yoki sovuq? Sizga qanday ob-havo yoqadi? Nima uchun?" va bq. Kelasi safargacha o'quvchilar ob-havoni kuzatib borishga odatlanadilar va kecha qanday edi, bugun qanaqa ekanligini aytib beradilar.

O'quvchilar bir-birini to'ldirib, alohida-alohida aytilgan gaplarni o'qituvchi yordamida o'zaro bog'lab, mantiqiy izchillikda hikoya tuzadilar. Bu hikoyalar hech qanday munosabatsiz, aniq vaziyat yoki holat tasviridan iborat bo'ladi. Hikoyalar, taxminan, quyidagicha shaklda bo'lishi mumkin: "Bugun ob-havo yaxshi. Osmon ko'm-ko'k. Quyosh charaqlab turibdi. Kuchsiz shamol esyapti. Yomg'ir yoqqani yo'q. Kun issiq". Yoki: "Bugun ob-havo yomon. Osmonda qora bulutlar, quyosh ko'rinxaydi. Yomg'ir yog'yapti. Sovuq" va hk.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot yoki oddiy hikoyadan boshlanib, sinflar yuqorilab borgani sari o'quvchini o'z fikrini ifodalashga o'rgatadigan, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan, aqlini peshlab dunyoqarashini kengaytiradigan, tafakkurini tiniqlashtiradigan, nazarini ziyraklashtiradigan ta'lim-tarbiyaiy

ahamiyatga ega bo'lgan ish turiga aylanib boradi. Insho bola shaxsini shakllantirishda g'oyat samarali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, voqeа-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishini topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho o'quvchini o'z fikrini tartibga solishga o'rgatadi.

Ta'limning dastlabki bosqichida tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi, rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'rildi. Insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsda ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Inshoning darsdagi umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho yozish uchun 2-sinfda, odatda, bir dars zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15–20 daqiqa, 3–4-sinflarda bir yoki bir yarim dars ayrim vaqtarda 2 darsgacha ajratiladi.

O'quvchilarni insho yozishga yo'naltirish bugungi kunda ham umumta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan insholarning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan insholardir. Rasmlar va tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasmlar bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi.

Rasmlarni tomosha qilish kabi sayohatlarga chiqish ham bolalar sezgisiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hayotning bola tajribasida hali uchramagan qirralari ochiladi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar o'quvchilar tasavvurini, hayolot dunyosini boyitadi. O'quvchilar tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini va nimalarning guvohi bo'lganini o'zlaricha bayon qiladilar.

Bunday inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va

qiziqishiga, inshoda ilgari surish ko'zda tutilgan etakchi fikrga ham bog'liq. Insho bolalarning voqeа-hodisalarни chуqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga о'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini oshiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqeа-hodisalar haqida hikoyalar tuzadilar hamda yozadilar, bu kabi ishlar ularning mustaqil ishslash malakasini o'stiradi, faolligini oshiradi.

Kuzda bolalar bilan bog', xiyobon, dalalarga sayohatlar uyushtiriladi va barglarning to'kilishi (xazonrezgi) hodisasi kuzatiladi. Bu sayohatdan olingan turfa rangdagi barglar, qaysi daraxtning bargi qanday rangda bo'lishi, qarag'ay, chinor daraxtlarining g'uddalari va boshqa taassurotlar asosida dars o'tiladi. O'quvchilar o'qituvchining savollariga ko'ra sayohat chog'ida ko'rganlari haqida so'zlab beradilar. O'qituvchi o'quvchilarning javobini diqqat bilan kuzatib, so'zlarning ma'noga mos holda to'g'ri qo'llanilishi, gaplarning qurilishiga e'tibor qaratadi va bolalar nutqiga zaruriy tuzatishlar hamda to'ldirishlar kiritib boradi.

Suhbat, taxminan, quyidagi savollar ko'magida amalga oshiriladi: "Ayting-chi, hozir yilning qaysi fasli kirib keldi? Ob-havo yozda qanday bo'lgan edi, eslay olasizmi? Yozda daraxtlarning bargi qanaqa rangda edi? Hozir, kuzda qanday rangda? Nega shunday ekani haqida o'ylab ko'ring-chi? YAna nimalarni ko'rdingiz? Kuzgi barglar ustida yurganingizda qanday ovozni eshitdingiz? Kuzda daraxt barglarining to'kilishi qanday ataladi? To'kilgan barglarni nimaga o'xshatish mumkin, sizningcha?" va hk.

O'quvchilar qushlarning uchib ketishini, hasharotlarning g'oyib bo'lishini ham kuzatadilar va bu hodisalar ham hikoyaga – og'zaki inshoga mavzu va material bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatni kuzatish va tabiat taqvimini yuritish qishda ham davom ettiriladi. Bolalar qor yog'ishini, sovuqning boshlanishini, izg'irinni, ariq va hovuzlardagi suvning muzlashini kuzatadilar. Bu davrda og'zaki insho uchun quyidagi mavzular tanlanishi mumkin: "Birinchi qor", "Ariqlar muzladi", "Izg'irin", "Qishki o'yinlar" "Biz Qorbobo

yasadik”, “Tepalikdan uchamiz”, “Archa”, “Qanaqa sovg‘alar oldik?”, “Qorboboga xat” va boshqalar.

Bahorda bolalar qor va muzlarning erishini, daraxtlarning kurtak chiqarishini, boychechak va boshqa gullarning ochilishini, ekilgan urug‘larning ko‘karishini kuzatadilar. Bahorgi insho uchun mavzular juda ko‘p: “Bahor elchisi”, “Birinchi chechak”, “Kurtaklar”, “Urug‘ unib chiqdi”, “Qaldirg‘ochlar qaytib keldi”, “Dalada ishlar boshlandi”.

Uy hayvonlarini kuzatish ham o‘quvchilarga “Mushukcham”, “Olapar”, “Mening qo‘zichog‘im” mavzularida hikoyalar tuzish imkonini beradi. Mehnat haqidagi mavzular esa katta tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi: “Onam(otam)ga yordamlashdim”, “Uy ishlari tartibi”, “Men mushuk (it, qo‘y) boqaman”, “Ukam (singlim)ni o‘ynataman”, “Tomorqada ishladik”, “Gul o‘tqazdim bog‘imga”, “Sinfda navbatchiman” va hk.

Bunday mavzulardagi ijodiy ishlar bolalarning atrof-muhitni kuzatishlari, ijodiy ishni o‘z hayotlari bilan bog‘liq hodisalar asosida amalga oshirishlariga imkon beradi.

Kichik yoshdagি bolalar uchun borliqdagi o‘zgaruvchan va cheksiz hayotga nisbatan rasmlarda ixcham tarzda tasvirlangan turg‘un hayot haqida hikoya qilish osonroq tuyuladi. Rasmda hayotning bir lahzasigina tasvirlanadi, uning mazmuni chegaralangan bo‘ladi. Bolalar rasmni diqqat bilan kuzatib, unda tasvirlangan narsalarnigina hikoya qilib beradilar.

Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilariga insho yozishni o‘rgatishda eng samarali vosita bolalarga tanish voqelik aks etgan rasmlar sanaladi. Bunday rasmlar hamisha bolalar diqqatini tortadi, ularga yoqadi. Bitta rasm yoki ikki-uch qismidan iborat rasm asosida hikoya tuzishda bolalar rasmni mustaqil tomosha qilishib, uning mazmunini o‘qituvchining savollarisiz aytib berishlari ham mumkin. Bir o‘quvchining hikoyasini eshitgach, o‘qituvchi savol beradi: “Kim qo‘sishimcha qilmoqchi?” Hikoyadagi kamchiliklar aniqlangach, savollar bilan uni to‘ldirishga kirishiladi. O‘qituvchi yordamida mantiqiy izchillik va fikrlar ketma-ketligi hamda bog‘liqligiga erishiladi. Dastlab

nima haqida, keyin nima haqida to'xtalish, qanday tugatish kerakligi belgilanadi. Hikoya uchun zarur so'z va iboralar tanlanadi. Oxir-oqibatda, bog'lanishli matn - og'zaki hikoya-insho yaratiladi. O'quvchilar nutqining to'g'ri shakllanishi uchun hikoya bir necha marta takrorlantiriladi.

Ta'larning alifbegacha va alifbe davrida shakllangan og'zaki hikoyalar qish boshlariga kelib, asta-sekinlik bilan yozma bayonga aylana boradi.

Dastlabki paytlarda og'zaki va yozma insholar orasida katta farqlar ko'zga tashlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga og'zaki hikoya tuzishni mashq qildirar ekan, ularning nutqini o'stirishda o'z fikrlarini atroflicha isbotlay olishlariga erishishni maqsad qilib olishi lozim. Hikoyani yozma shaklda tuzish uchun hali bolalarning ko'nikmalari sust bo'ladi, shuning uchun bolalarga rasm bo'yicha asosiy fikrlarni ifodalovchi uch-to'rtta gapdan qisqa sharhlar yozish topshirig'i bilan chegaralanish kifoya qiladi. Og'zaki insho har doim ham yozuv bilan tugayvermaydi, biroq yozma insho oldidan og'zaki tayyorgarlik ko'rish lozim bo'ladi.

Yozma insho sari qo'yilgan birinchi qadamdanoq o'qituvchi o'quvchilarning inshoni to'g'ri, imloviy xatolarsiz yozishlariga e'tibor qaratishi maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, o'quvchilarni yozma insho yozishga yo'naltirishda asosiy jihat mantiqli savollar qo'ya bilishdan iboratdir. Tabiat taqvimi ustida ishlash, ekskursiya, o'yinlar, ishlar yoki rasm asosida hikoya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish orqali o'qituvchi bolalarni ushbu hikoyalarni yozma shaklda ifodalashga o'rgatib boradi. Bu davr insho yozishni o'rganishda eng mas'uliyatli hisoblanadi, chunki o'quvchilar nafaqat o'z fikrlarini to'g'ri va aniq ifoda etishlari, shu bilan birga, ularni imloviy xatolarsiz yozishlariga ham erishish talab etiladi.

Masalan, "Qorbo'ron" mavzusida insho yozishni misol qilib keltirish mumkin. Bu insho III chorakning boshida – yanvarning oxiri va fevralning boshlarida yozilishi maqsadga muvofiqdir.

Qorbo'ron o'yinidan so'ng bolalar o'z taassurotlarini o'qish darslarida aytib beradilar. O'qituvchi quyidagi savollar yordamida ularning hikoyalarini tizimlashtiradi: "Qachon qorbo'ron o'ynadingiz? Qaerda o'ynadingiz? Ob-havo qanday edi? Qor qanday edi? Qancha bola qorbo'ron o'ynadi? Sizni necha marta qor bilan urishdi? O'zingiz necha marta nishonga urdingiz? Kimlarga qor otdingiz? Qor kimga tegdi? Og'ridimi? Qorbo'ron o'ynaganda nimalarni his qildingiz?" va hk.

O'qituvchi o'quvchilarning bog'lanishli hikoya-insho tuzishlariga erisharkan, ular nutqining to'g'rilibini ham kuzatib boradi. Biroq o'quvchilarning hikoyasini cho'zish shart emas, buning uchun 5 – 6 daqiqa kifoya qiladi. CHunki hali oldinda yozma ish turibdi.

O'qituvchi bolalarni eshitarkan, ularni yozma inshoga tayyorlay boshlaydi. Hikoya-insho sarlavhasi qisqa va ma'noli bo'lishi kerak. Bolalar "*Qor parchalari*", "*Qorbo'ron*", "*Qishki o'yinlar*", "*Qish zavqi*" va *hokazo* nomlarni aytadilar. O'qituvchi "*Qorbo'ron*" yoki "*Qish zavqi*" sarlavhalarining yoziladigan inshoga, hikoya mazmuniga boshqalaridan ko'ra ko'proq mos kelishini ko'rsatib beradi. Sarlavha va savollar xattaxtaga yoziladi.

Bolalar har bir savolga uni takrorlab, javob uchun lozim bo'lgan so'zini qo'shib, bitta gap bilan javob beradilar. Bu to'ldiruvchi so'zlarni o'qituvchi savollarning to'g'risiga yozib qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarni navbat bilan xattaxtaga chiqaradi va ularga faqat bitta savolni o'qib, unga bitta gap bilan javob berishni taklif qiladi. So'ng savollarni ichida o'qib, javoblarni ovoz chiqarib berishni topshiradi. Nihoyat bir-ikki o'quvchi savollarga javob tarzida hosil bo'lgan barcha gaplarni o'zaro bog'lab, bog'lanishli matn, ya'ni hikoya-inshoni aytib beradilar. O'quvchilar yozgan gaplarini shu tariqa tekshirishib, barcha savollarga javob yozishadi.

Yozma ish bajarilib, yozilgan insholar tekshirib bo'lingach, o'qituvchi ikki-uch o'quvchidan insho sarlavhasi va o'z inshosini o'qib berishni so'raydi. Shunisi muhimki, bolalar alohida-alohida so'zlar va

gaplarni emas, balki haqiqiy kichik insho yozganlarini anglab etishlari kerak, ya'ni ularga buni ishora qilib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan inshoga tayyorlanish va uni tekshirishga ajratilgan vaqt bir muncha qisqarib boradi. Imloviy tahlil birdaniga xattaxtada yozilgan savollardagi barcha so'zlar bo'yicha o'tkaziladi; tekshirish alohida savollar bo'yicha emas, balki insho to'lig'icha yozib bo'linganidan so'ng tashkil etiladi. Bunday ish bolalarni o'zi yozadigan har bir so'z, har bir harfga diqqat bilan munosabatda bo'lishga majbur qiladi. U nafaqat imlosi o'ziga ma'lum so'zlarni, balki hali notanish bo'lgan so'zlarning yozilishiga ham diqqat qila boshlaydi.

Bunday insholar yozishda o'quvchilar gaplar chegarasini his qilishni o'rganishadi, ularni nuqta bilan bir-biridan ajratadilar, har bir yangi gapning birinchi so'zini bosh harf bilan boshlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar bu ishni to'la o'zlashtirib, unga ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng insholarni bir muncha murakkablashtirish mumkin, ya'ni shunday savollar tuzish lozimki, o'quvchilar javob berishda faqat savolda ishlatilgan so'zlardan foydalanmay, o'z lug'at boyligidagi so'zlarni ham qo'llasinlar. Bunga misol qilib, "Qush uyasi" qisqli surati ustida ishslashni tavsiya etish mumkin.

Mazkur rasm asosida o'quvchilar hikoya-insho yaratishlari uchun ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Bolalar qayoqqa ketishayotgan edi?
2. Yo'lda ular nimani ko'rib qolishdi?
3. Nima deb o'ylaysiz, polapon qanday qilib uyasidan tushib ketgan bo'lishi mumkin?
4. Erda yotgan polaponni ko'rganda bolalar nimalarni his qilgan deb o'ylaysiz?
5. Sizning ko'nglingizdan nima kechdi?
6. Javohir (suratdagi bola) nima qildi?
7. Siz nima qilgan bo'lardingiz?

Bu savollarning barchasiga hamma bolalar birday javob bera olmasliklari mumkin, albatta. Lekin javob berishga qodir bolalarning

imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarning og'zaki insho-hikoyasi, taxminan quyidagi tarzda bo'lishi, hikoya-inshoning sarlavhasi esa: «Polaponni qutqarish» tarzida bo'lishi mumkin:

«Kenglikda chillak o'ynash uchun ketayotgan bolalar katta bir daraxt tagida erda yotgan polaponni ko'rib qolishdi. U uyasidan tushib ketgan ekan. Polaponning qorni ochgan va ovqat qidirib uyasining chetiga kelib qolganini bilmay qolgan. Shunda yiqilib tushgan. Bolalarning kattasi Javohir polaponni darrov qo'liga oldi va daraxtga chiqib, uni uyasiga solib qo'ydi. Uning bu ishidan hammamiz xursand bo'ldik».

Rasm asosida insho yozishga tayyorlanishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak: o'quvchilarning rasm asosida insho yozishdagi muvaffaqiyati, aksariyat hollarda, inshoga tayyorlanish bosqichida ularga beriladigan rasmlar mazmuniga bog'liq. Insho yozishga tayyorgarlik, bu – ma'lumotlar yig'ish, uni qayta ishslash va qurish jarayoni. Buning uchun berilgan mavzu asosidagi rasm bo'yicha o'quvchiga o'z shaxsiy taassurotlarini to'laligicha ifodalashga yordam beradigan atrof-borliqdagi dalillardan foydalanish malakasini rivojlantirishga e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega.

Rasm asosida insho yozdirish uch bosqichni o'z ichiga oladi:

I. O'qituvchining rasm asosida insho yozish darsiga tayyorlanishi:

1. O'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklarini hamda o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadni hisobga olgan holda rasm tanlash.
 2. Rasm mazmunini o'rGANISH, ya'ni uni "o'qish".
 3. O'quvchilarni muallifning tarjimai holi, ijodi va rasmning yaratilish tarixi hamda rassomning badiiy niyati bilan tanishtirish.
 4. Suhbat uchun savollarni rejalshtirish.
 5. Inshoning taxminiy rejasini tuzish.
- II. Rasm asosida insho yozish (ko'rganlarni tasvirlash) darsi:
1. O'quvchilarni insho mavzusi hamda maqsadi bilan tanishtirish.

2. O'qituvchining rassom (uning ijodiy yo'li va alohida asarlari) haqidagi kirish so'zi hamda asar mazmuni yuzasidan sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga, rasmni qabul qilish saviyasiga mos holda suhbat o'tkazish.

3. Rasm mazmuni yuzasidan savol-javob uyushtirish va javoblarni tahlil qilish.

4. O'quvchilarning tayyorlik darajasidan kelib chiqib, insho rejasini jamoaviy tarzda yoki yakka holda mustaqil tuzish.

5. Bir-ikki o'quvchining rasm asosidagi og'zaki inshosini tinglash va ularning boshqa o'quvchilar tomonidan mazmun hamda til xususiyatlari yuzasidan taqriz qilinishi (bu tahlil o'qituvchi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin).

6. Ayrim so'zlar va jumlalarning imlosini tushuntirish.

7. O'quvchilarning rasm asosida mustaqil yozma ishi.

III. Insholarning tahlili va yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar ustida ishslash.

Rasm asosida insho yozishda birinchi bosqich juda muhim sanaladi. Aynan ushbu bosqichda inshoning muvaffaqiyatli yozilishi uchun zamin hozirlanadi va bu ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Birinchidan, o'qituvchi bolalarga yaqin va qiziqarli mavzudagi, kompozitsion munosabatlari murakkab bo'limgan, janrdagi rasmni tanlashi lozim. Aynan shunday rasmlar bilan rasm asosida insho yozishni boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi uchun eng muhimi – o'quvchilarni rasmni "o'qish"ga o'rgatishdir. Rasmni "o'qiy olish" degani rassomning ijodiy maqsadini tushunish, rassomchilikni "ko'rgazmali timsollar", "so'zlovchi bo'yoqlar", yorug'lik va soya san'ati sifatida qabul qilish, ya'ni rasmning "tilini tushunish" hisoblanadi. O'quvchilar buni tushunib olishgach, rasmning mohiyati va g'oyaviy mazmunini ochib bera oladilar. O'qituvchi dars uchun rasm tanlar ekan, uning o'zi rasmni diqqat bilan ko'zdan kechirishi, mavzusini, g'oyaviy mazmunini o'zi uchun belgilab olishi, rassom o'z badiiy maqsadini ifodalashda badiiy tasvirning qanday

vositalaridan foydalanganligini, qanday ranglarni qo'llaganini aniqlab olishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi tomonidan tayyorlangan savollar tizimi rasm mazmunining ochib berilishidagi izchillikni, chuqur tahlilni, rassom maqsadini anglashga yordam beruvchi bosh va asosiy g'oyani anglab etishga diqqatini qaratadi. O'qituvchi savollarni shakllantirar ekan, o'quvchilarni suhbat jarayonida berilgan rasm mazmunini ochishda u yoki bu lug'aviy va grammatik vositalardan maqsadga muvofiq foydalanishga yo'naltirishni ham nazarda tutadi. Matnda alohida so'zlar, iboralardan foydalanishda va gap qurilishida ko'zda tutilgan qiyinchiliklarni hisobga oladi hamda bartaraf qilish yo'llarini belgilaydi.

Shunday qilib, rasm asosida insho yozishga tayyorlanish jarayoni o'quvchilarga ham, o'qituvchiga ham katta vazifalarni yuklaydi. Agar bu jarayonning har bosqichi puxta o'ylangan reja asosida olib borilsa, o'quvchilarga rasm asosida insho yozish qiyinchilik tug'dirmaydi. Chunki ularga tayyorlanish bosqichida o'qib, o'rganganlarini qog'ozga tushirishgina qoladi.

Albatta, o'quvchilarining insho-hikoyasi bu kabi izchil va keng qamrovli bo'lmasligi mumkin. Lekin ularni fikrlarini shunday izchillikda ifodalashga yo'naltirish va savollarga keng qamrovli javoblar berishga undash boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi hisoblanadi. Xatolardan ogohlantirish va yozilganlarni tekshirish yuqorida ko'rsatilgandek o'tkaziladi.

O'quv yilining oxiriga kelib, I sinf o'quvchilari o'qituvchi tomonidan, ba'zan o'zi tanlagan mavzu yoki devoriy suratlardan biri bo'yicha umumiy holda, yoki kichik rasmlar bo'yicha alohida inshoni mustaqil, og'zaki tayyorgarliksiz yozishga yo'naltiriladi. Bolalar bunday ish turini juda yaxshi ko'radilar. Chunki bu ularga mustaqil fikrlash imkonini beradi. Masalan.



Boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish darslarida inshoga ham, gap ustida ishlashga ham birdek ahamiyat beriladi. SHuning uchun o'quvchilarning o'z shaxsiy fikrlarini sharhlab bera olishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda og'zaki ishning ham, yozma ishning ham o'rni baravardir. II sinf o'quvchilari ma'lum darajada yozish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishadi, shu sababli og'zaki va yozma ishlar o'quv yilining birinchi haftasidanoq boshlanadi.

Ona tili va o'qish ta'limida II sinfda insho yozishni o'rganish bo'yicha quyidagi ish turlari ko'rib chiqiladi:

- atrofdagi olam, tabiat hodisalari, mehnat va o'yinlar haqida og'zaki hikoyalar tuzish;
- tabiat taqvimi bo'yicha tabiat hodisalarini kuzatish asosida qisqa yozuvlar;
- rasm yoki qismli rasmlar asosida, biron bir hodisa yuzasidan, jamoaviy tarzda tuzilgan reja va tayyorlangan lug'at asosida og'zaki hamda yozma insholar yaratish.

II sinf o'quvchilari ham xuddi I sinf tarbiyalanuvchilari kabi rasm va qismli rasmlar asosida insho yozadilar. Shunday qilib, II sinfda o'quvchilar yozadigan insholarning mazmuni darsda o'rganiladigan mavsumiy mavzularga: atrofdagi olam va tabiatni, mehnat va o'yinlarni, narsalar va tabiat hodisalarini aks ettiradigan mavzularga qo'shimcha ravishda odamni tavsiflashga ham bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu yo'nalishda tabiatni kuzatish ishlari – tabiat taqvimini to'ldirish, tabiat qo'yniga sayohat davom etadi.

Tabiatni o'rganish mavzulari bilan ayrim insho mavzularini bog'lash lozim. Kuzatishlar, odatda, yozib boriladi. Kuzda bolalar maktab er-maydonidagi yoki tomorqadagi yig'im-terim ishlarida qatnashishganidan so'ng ularga quyidagi mavzularda insho yozishni topshirish mumkin: "Mo'l hosil", "Polizda", "Tomorqani qishga hozirladik", "Ekin uchun foydali va zararli jonzotlar", "Dalalarda hosil mo'l", "Hasharga bordik" va hk.

Sabzavotlar mavzusidagi inshoni quyidagi savollar asosida yozish mumkin: «Sabzavotlar qaerda etishtiriladi? Polizda qanday sabzavotlar o'sadi? Sabzavotlar qanday yig'ishtiriladi? Polizda hosil qanday? Siz qaysi sabzavotlarni yaxshi ko'rasiz? Sizga bu sabzavotlarning nimasi yoqadi? Qaysi sabzavot nimasi bilan foydali ekanligi haqida biror narsa bilasizmi?» va hk.

O'quvchilar "Ekin uchun foydali va zararli jonzotlar" mavzusidagi inshoni quyidagi savollar asosida yozishlari mumkin: "Poliz uchun qaysi jonzotlar foydali? Ular nimasi bilan foydali sanaladi? Qaysi jonzotlar poliz uchun zararli? Ular polizga qanday zarar keltiradi? Sizning ularga munosabatingiz qanday: rahmingiz keladimi, yomon ko'rasizmi, qo'rjasizmi yoki yaxshi ko'rasizmi?» va hk.

Bolalar qishda mahalliy hayvonlar hayoti bilan tanishadilar va shu asosda tasviriy insho yozadilar. Ular inshoda tasvirlanayotgan hayvonning tashqi ko'rinishi, tana qismlari, nima bilan oziqlanishi, qanday himoyalanishini yoritadilar.

Bundan tashqari, o'quvchilar yurtimizda keng nishonlanadigan bayramlar va taqvimning qizil kunlari bilan bog'liq quyidagi

mavzularda ham tasviriy, ham hikoya insho yozishlari maqsadga muvofiq: “Eng ulug’ bayram”, “Ona tilimiz bayrami”, “Bosh qomusimiz”, “Vatan himoyachilari”, “Onajonlar bayrami”, “Navro’zi olam”, “Xotira va qadrlash kuni” va boshqalar. Insho uchun o’quvchilarda mavjud “bilimlar ombori”ga mos keladigan mavzular tanlanishi kerak bo’ladi.

Choraklik yoki yarim yillik baholar uchun yoziladigan nazorat insholariga mavzu tanlar ekan, o’qituvchi o’quvchilarga belgilangan insholar uchun qanday materiallar zarurligini avvaldan aniqlab olishi va o’quvchilarni zarur materiallar bilan ta’minlashi kerak bo’ladi. Bu kabi materiallarga o’quvchilarni kuzatishlar olib borishga undash, ko’rsatish, hikoya qilib berish, o’qish uchun tavsiya qilish orqali ega qilish mumkin.

O’quvchilarning o’zida ham berilgan mavzular bo’yicha anchagina material bo’lishi mumkin. Bu kabi hollarda insho mazmunini chegaralash yaxshi samara beradi, masalan, “Qish” mavzusi juda keng bo’lib, uni yozish II sinf o’quvchisi uchun qiyinchilik tug’dirishi aniq. Buning oldini olish maqsadida insho mavzusini konkretlashtirish talab qilinadi, ya’ni “Qish” mavzusini quyidagidek bir necha mavzularga ajratish mumkin: “Qish kirib keldi”, “Birinchi qor”, “Qishki o’yinlar”, “Yangi yil bayrami” va boshqalar.

Insho yozishda o’quvchilarning o’zlaridagi materiallarni izchillik bilan, qat’iy ketma-ketlikda joylashtirish, ya’ni inshoda dastlab nima haqida yozish, keyin uni qanday tugatish bo’yicha ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda ularni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. SHunda o’quvchining inshosidagi fikrlar ketma-ketligi uni o’qigan har bir kishiga aniq va ravshan bo’lishiga erishiladi.

II sinfda o’quv yilining boshida insho yozishga o’rgatish metodikasi birinchi sinfdagiday bo’ladi. O’quv yilining keyingi davrlarida u to’xtovsiz ravishda o’zgarib boradi: o’quvchilar ko’proq mustaqil ishslashga o’rgatib boriladi.

O’qituvchi shu taxlit ikki-uch marta insho yozdirganidan keyin, o’quvchilarni faqat savolni qisman takrorlaydigan javob gaplarni

emas, balki o'quvchi tomonidan mustaqil tanlanadigan javoblar talab qiladigan gaplarni tuzishga asoslangan mavzularga o'tishi mumkin. Shu tariqa o'quvchilar nafaqat insho yozishni, balki taassurot va sharh yozishni ham o'rganadilar.

Ikkinci chorakning boshida ish bir muncha murakkablashtiriladi: o'qituvchi savollarni shunday tuzishi kerak bo'ladiki, o'quvchilarga bitta savolga ikki-uchta, hatto undan ham ko'p gap bilan javob yozishga to'g'ri kelsin.

Ikkinci yarim yillikda o'quvchilar savol bilan emas, balki kichik sarlavhalar bilan ifodalangan reja bo'yicha insho yozishni boshlaydilar. Insho yozishga bunday o'tish o'qish darslaridagi xuddi shunday ishlardan biri – reja asosida so'zlab berish bilan bog'liq holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. O'qilgan hikoya bo'yicha reja tuzishda o'qituvchi o'quvchilardan hikoyaning har bir qismiga kichik sarlavha qo'yishni so'raydi. Bu yo'l bilan o'quvchilarda hikoyaning qismlariga mos kichik sarlavha topish va reja tuzish ko'nikmasi shakllantira boriladi. SHuningdek, o'qituvchi taassurot-insho yozishga tayyorgarlik jarayonida ham shunday yo'l tutishi kutilgan natijani beradi. Bunda quyidagi yordamcha savollardan foydalanish mumkin: «Hikoyaning birinchi qism bo'yicha nimalarni gapirmoqchisiz? Uni qanday nomlashni o'yladingiz? Ikkinci qismi bo'yicha nimalarni gapirish mumkin? Unga qanday sarlavha qo'ysa bo'ladi?» va bq.

Misol uchun, dalaga qilingan sayrdan so'ng yoziladigan "Dalada" mavzusidagi insho uchun quyidagicha reja tuzish mumkin:

1. Dalaga yo'l.
2. Dalada.
3. Uyga qaytish.

II sinfda ham bolalar o'z hikoya-insholarini yozishga kirishishlaridan oldin ular ishlatishlari mumkin bo'lgan so'zlarni diqqat bilan imloviy tahlil qilish lozim. So'zlarning imlosi ustida ishslash bolalarning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi ma'qul bo'ladi.

Inshoni o'qituvchiga topshirishdan oldin o'z ishlarini yana bir marta tekshirib olishlariga o'rgatish bolalarda mas'uliyatlilik va o'z ishlari uchun javobgarlik hissini tarbiyalaydi.

Bir o'quv yilida bir necha marta (asosan, ikkinchi yarim yillikda) o'quvchilarga sinfda va uyda mustaqil insho yozish topshiriqlari beriladi. Bunday insholar o'quvchilarining alohida tanlagan yoki barchasi uchun umumiyligi bo'lgan rasm asosida bo'lishi mumkin. Bu insholar og'zaki tayyorgarliksiz yozilishiga etibor qaratish kerak.

Insho ustida ishslash o'quvchilarni tanlangan mavzu ustida fikrlarini rivojlantirishga o'rgatadi, ularning shaxsiy qarashlari va qiziqishlarini shakllantiradi, o'quvchilarga o'zlarini xavotirga solgan yoki to'lqinlantirgan narsalarni aytish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarni adabiyot bilan tanishtiradi, ularni o'z shaxsiyati, bilimi va dunyoqarashini namoyish etishga yo'naltiradi.

Bugungi o'quvchilar ertaga qaysi kasb egalari bo'lishidan qat'i nazar, birinchi navbatda, madaniyatli, ma'naviy barkamol kishilar bo'lishlari lozim. Bugungi kunda madaniyatli kishi erkin va savodli yoza bilishi hamda gapira olishi lozim. Shaxsni o'z fikr va tuyg'ularini xoh og'zaki, xoh yozma ravishda ifodalash malakasisiz rivojlantirish mumkin emas. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishning dastlabki shartidir.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak insho bolalarning voqeahodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini o'stiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqeahodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi.

Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, mакtab, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi.

Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda o'quvchilarga yordam beradi.

Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqeahodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

Insho, umumiyl ma'noda, ma'lum bir asar, biror hayotiy hodisa yoki tasviriy san'at namunalari asosida o'quvchilarning o'z fikrmulohazalari, mushohadalarini aks ettiradigan yozma ish turi sanalib, adabiy ta'limning umumiyl tizimida asosiy didaktik ish turlaridan biri hisoblanadi.

Insho tushunchasining zamirida mavzu va hajmning cheklanganligi, o'quvchining ana shu cheklanganlik doirasidan chetga chiqmagan holda qo'yilgan masalani ochib berishga asoslangan mustaqil faoliyati yotadi. Inshoga material sifatida hayotdagি biror

hodisa, badiiy asardagi qandaydir epizodning yoki boshqa biror kishining hayotidan lavha, biror joyga, biror tasvirga munosabatni olish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, insho – o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkur mustaqilligi hamda ma'naviy kamolotini ta'minlash yo'lida ularning o'zлari tomonidan amalga oshiriladigan, har bir o'quvchidan o'z mustaqil fikri, shaxsiy munosabatini, betakror xulosasini bayon etish talab qilinadigan o'quv faoliyatining murakkab shaklidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda insholarning o'rni. -T.: \\\
Til va adabiyot ta'limi, 2010. 2-son. 3 – 17 b
2. Zunnunov A., Nurmatova M. O'rta mакtabda insho. -T.: TVPXMOI, 1992. –44 b.
3. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo'li. Toshkent.
"Muharrir" nashriyoti, 2013. –432 b.
4. Madaev O. Insho qanday yoziladi: O'rta maxsus o'quv yurtlarining o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 1991.
5. Sattorova N. Insho turlari. O'zbek maktablarida ona tili o'qitish masalalari (Metodik tavsiyalar). -T.: O'qituvchi, 1991
6. Madaev O. va boshq. YOzma ish turlari: insho, bayon, diktant. -
T.: Turon zamin ziyo, 2017.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinci jild. -T.: O'zbekiston, 2006. –671 b.
8. O'zbekiston Milliy enseklopediyasi. 2-jild. -T., "O'zbekiston milliy enseklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2000
9. Qosimova K. va bq. Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009.
- 10.Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: O'qituvchi, 1996

M U N D A R I J A

Kirish	3
O‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirishda inshoning o‘rni.....	5
Insholarni tashkil etishda o‘qituvchi kompetentliliqi va pedagogik hamkorlikning o‘rni.....	9
Insholarni tashkil etishga qo‘yiladigan psixologik, pedagogik va metodik talablar	14
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga insho yozdirish yo‘llari.....	22
Xulosa	38
Foydalangan adabiyotlar	40

SHODIYEVA J.X.

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA
INSHODAN FOYDALANISH**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 09.01.2021 y.

Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y

Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.

«Cambria» garniturasi. Ofset bosma usuli.

2.62 bosma taboq

Adadi: 50 nusxa.

Buyurtma №13/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.